Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.....	714
Pardayev Asror Ikromovich	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi	718
Qayumova Mahfuzaxon Alisher qizi	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidlarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirish metodikasi (Temurbeklar maktablari misolida)	724
Quldashev Murodjon G'aniyevich	
Bugungi voleybolda to'p uzatish texnikasi va aniqligini 13–14 yoshdan boshlab aylanish harakatlari ta'sirida shakllantirish afzalligi	727
Rejapov O'tkirbek G'ayratjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bolalar o'yin folklorini o'rgatishda tolerantlikni rivojlantirishning metodik usullari va texnologiyalari.....	733
Ro'ziboyeva Madina Salimovna	
Pedagogik muloqot tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari	737
Ro'zimatova Maxpuza	
Intellektual qadriyatlarning talaba yoshlar aksiologik hayotiy pozitsiyasini shakllantirishdagi roli	743
Rustam Latipov Mamadaliyevich	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda AI-platformalarni integratsiyalashning amaliy mexanizmlari	747
Rustamov Kamoliddin Ziyodillo o'g'li	
Maktab biologiya ta'limida individuallashtirish texnologiyasidan foydalanish metodikasi.....	754
Savutova Malohat Erkinovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning turizm sohasiga bo'lgan munosabatini o'rganishning ijtimoiy-pedagogik metodikasi.....	760
Shodiyorov Rustam Xasan o'g'li	
Bo'lajak harbiy xizmatchilarda deontologik yondashuvlar asosida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish.....	764
Soyibnazarov Baxtiyor Abdunazar o'g'li	
Pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy yer bilimi fanidan amaliy mashg'ulotlar tizimini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning dolzarb masalalari.....	770
Sultanova N. B.	
Ijtimoiy reabilitatsiyani amalga oshirishda tibbiy-psixokorreksion maslahat ishlar mazmuni.....	775
Suvanqulova Shaxnoza Karimqulovna	
Blokcheyn texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va imkoniyatlari	780
Suyumov Jo'rabek Yunusaliyevich	



Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	783
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rne	787
<i>To'xtasinova Nigoraxon Azizxon qizi</i>	
Oliy o'quv yurtlarida analitik kimyo fanini o'qitishning samaradorlik ko'rsatkichlari	793
<i>Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi</i>	
Antroposentrik yondashuv asosida o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish yo'llari	796
<i>Xamidova Nigora Ibrohimovna</i>	
Обучение говорению на русском языке абитуриентов с помощью настольных игр	800
<i>Абдулахадова Шохид</i>	
Особенности педагогической деятельности и их виды	803
<i>Мавжудова Ш. С., Мирходжаева Д.</i>	
Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda refleksiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi o'z boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari	830
<i>Qarshiboyev Asliddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Мaktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	

PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO'LAJAK O'QITUVCHILAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O'RNI

Aliyeva Mavjudaxon Baxromjon qizi
Qo'qon Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada pedagogik amaliyotning bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimidagi o'rni, ahamiyati, shakllari va tashkil etish metodikasi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Pedagogik amaliyotning maqsadlari, vazifalari, turlari va bosqichlari; nazariya va amaliyot aloqasi; professional kompetensiyalar shakllanishi; amaliyot jarayonini boshqarish va baholash masalalari chuqur o'rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik ta'lim talablari, xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik amaliyot, o'qituvchilar tayyorlash, professional kompetensiya, nazariya va amaliyot, pedagogik mahorat, o'quv jarayoni, staj, mentorlik, refleksiya, pedagogik faoliyat.

Abstract: The article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the role, significance, forms, and organizational methodology of teaching practice within the system of training future teachers. The study thoroughly examines the goals, tasks, types, and stages of teaching practice; the connection between theory and practice; the formation of professional competencies; and issues of managing and assessing the practicum process. Modern requirements for pedagogical education, international experience, and practices from Uzbekistan are also presented.

Key words: teaching practice, teacher education, professional competence, theory and practice, pedagogical mastery, learning process, internship, mentoring, reflection, pedagogical activity.

Аннотация: В статье научно-теоретически и практико-ориентированно проанализирована роль, значение, формы и методика организации педагогической практики в системе подготовки будущих учителей. Детально рассмотрены цели, задачи, виды и этапы практики; связь теории и практики; формирование профессиональных компетенций; вопросы управления и оценки практической подготовки. В исследовании представлены современные требования к педагогическому образованию, международный опыт и практика Узбекистана.

Ключевые слова: педагогическая практика, подготовка учителей, профессиональная компетентность, теория и практика, педагогическое мастерство, учебный процесс, стаж, наставничество, рефлексия, педагогическая деятельность.

KIRISH

O'qituvchi kasbi jamiyatdagi eng muhim va mas'uliyatli kasblardan biri bo'lib, kelajak avlodning shakllanishi, ta'lim-tarbiya olishi va shaxs sifatida rivojlanishi bevosita o'qituvchi qo'lga ishonib topshiriladi. Shu sababli o'qituvchilarni tayyorlash tizimi davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir mamlakat o'z ta'lim tizimi sifatini oshirish uchun, avvalo, o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratadi.

Yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, o'z kasbini sevuvchi, innovatsion fikrlovchi o'qituvchilarni tayyorlash murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayon nafaqat nazariy ta'limni, balki keng qamrovli, maqsadga muvofiq tashkil etilgan amaliy tayyorgarlikni ham talab etadi. Aynan pedagogik amaliyot – nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantiradigan, talabalarni haqiqiy professional faoliyatga tayyorlaydigan, pedagogik mahorat shakllanadigan muhim bo'g'in hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni zamonaviy standartlarga moslashtirish jarayonida o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezident farmonlari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Davlat ta'lim standartlari o'qituvchilar tayyorlashning yangi tizimini yaratish, nazariya va amaliyot muvozanatini ta'minlash hamda pedagogik amaliyot sifatini oshirish vazifalarini belgilab bermoqda.



Pedagogika universitetlari va o'qituvchilarni tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari o'z o'quv rejalarida pedagogik amaliyotga katta hajm va ahamiyat bermoqda. Biroq pedagogik amaliyotni samarali tashkil etish, uning natijadorligini ta'minlash, nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash borasida hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Shu sababli pedagogik amaliyotning metodik asoslarini yanada takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida uni tashkil etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik amaliyot masalasi pedagogika fanida uzoq tarixga ega bo'lib, K.D. Ushinskiy, A.S. Makarenko, V.A. Sukhomlinskiy kabi klassik pedagoglar o'qituvchini tayyorlash jarayonida amaliy tajribaning muhimligini alohida ta'kidlaganlar. Zamonaviy davrda pedagogik amaliyot nazariyasi va metodikasi bo'yicha O.A. Abdullina, V.A. Slastyonin, N.V. Kuzmina, V.K. Rozov kabi olimlar tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbek pedagogikasida N.A. Muslimov, Sh.E. Qurbonov, K. Qoronboyev, G.B. Sharipova, H. Rasulov kabi olimlar pedagogik kadrlar tayyorlash va pedagogik amaliyot masalalariga o'z hissalarini qo'shganlar. Biroq zamonaviy talablar, yangi pedagogik texnologiyalar va raqamlashtirish sharoitida pedagogik amaliyotni tashkil etish metodikasini yangilash va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik amaliyot o'qituvchilarni tayyorlash jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, talabalar oliy ta'lim muassasasida o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, pedagogik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, haqiqiy ta'lim muhitida ishlash tajribasini to'plash maqsadida tashkil etiladigan maxsus pedagogik faoliyat shaklidir. Pedagogik amaliyot talabalarni nazariyadan amaliyotga, o'rganuvchi pozitsiyasidan o'qituvchi pozitsiyasiga o'tkazuvchi muhim bosqich bo'lib, pedagogik faoliyat uchun zarur bo'lgan barcha kompetensiyalarni integrativ ravishda rivojlantiradigan jarayon hisoblanadi. Bu nafaqat pedagogik nazariya va metodikani o'zlashtirishdan keyingi qo'shimcha bosqich emas, balki nazariya va amaliyotni uzviy bog'lovchi, bir-birini boyituvchi muhim pedagogik vositadir.

Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni professional pedagogik faoliyatga kompleks tayyorlash, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish, pedagogik mahoratning dastlabki asoslarini shakllantirish, ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishtirish va mustaqil ish yuritish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu umumiy maqsad bir qator aniq va o'lchab bo'ladigan vazifalar orqali amalga oshiriladi.

- *Birinchi vazifa* – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish bo'lib, talabalar pedagogika, psixologiya va fan metodikalari bo'yicha olgan nazariy bilimlarini haqiqiy dars, tarbiyaviy ishlar hamda sinf rahbarligi faoliyatida amalda sinab ko'rishlari, nazariy tushunchalar bilan amaliy vazifalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishlari zarur.
- *Ikkinchi vazifa* – pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini bilan tanishish va tajriba to'plashdir. Talabalar nafaqat dars o'tish, balki sinf rahbarligi, tarbiyaviy ishlar, ota-onalar bilan ishlash, maktab ma'muriyati faoliyati, psixologik xizmat, qo'shimcha ta'lim va o'quv-metodik ishlar kabi pedagogik faoliyatning turli yo'nalishlarini kuzatish, ularda ishtirok etish hamda tajriba to'plashlari kerak.
- *Uchinchi vazifa* – professional kompetensiyalarni shakllantirishdir. Zamonaviy o'qituvchi kompetensiya modeli asosida pedagogda bo'lishi zarur bo'lgan kommunikativ, metodologik, psixologik, texnologik va refleksiv kompetensiyalarni amaliyot jarayonida rivojlantirish muhimdir.
- *To'rtinchi vazifa* – pedagogik tafakkur va kasbiy ongini shakllantirishdir. Talabalar o'qituvchi kasbining ahamiyati, mas'uliyati va murakkabligini chuqur anglashlari, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik qarorlar qabul qilish, o'z imkoniyatlarini baholash qobiliyatini rivojlantirishlari zarur.
- *Beshinchi vazifa* – o'z-o'zini rivojlantirish va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirishdir. Talabalar o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, qiyinchiliklarni bartaraf etish, kelajakdagi professional rivojlanish yo'llarini belgilash va doimiy o'rganish ehtiyojini his etishlari kerak.
- *Oldinchi vazifa* – mentorlik va hamkorlik tajribasini o'zlashtirishdir. Talabalar tajribali o'qituvchilar hamda metodistlar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, ularning tajribasidan o'rganish, maslahat olish, qo'llab-quvvatlash madaniyatini egallashlari lozim.



Pedagogik amaliyot turli bosqichlarda, xilma-xil shakl va mazmunda tashkil etiladi. Uning turlari o'rganish bosqichiga, davomiyligiga hamda mazmuniga qarab farqlanadi:

- **Kuzatuv (tanishuv) amaliyoti** – dastlabki kurslarda o'tkazilib, talabalar maktab muhitini o'rganadilar, pedagogik jarayonni kuzatadilar.
- **O'quv (mazmuniy-metodik) amaliyoti** – o'rta kurslarda o'tkazilib, talabalar o'z mutaxassislik fanlari bo'yicha dars o'tish elementlarini sinab ko'radilar.
- **Ishlab chiqarish amaliyoti** – yakuniy kurslarda to'liq dars o'tish, tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish, sinf rahbarligi kabi vazifalarni bajarish bosqichidir.
- **Davlat (yakuniy) pedagogik stajirovka** – talabaning mustaqil o'qituvchi sifatida faoliyat yuritish bosqichi bo'lib, bu jarayon professional tayyorgarlikning sinov davridir.

Shuningdek, amaliyot joylari xilma-xildir: umumta'lim maktablari, litseylar, gimnaziyalar, maktabgacha ta'lim muassasalari, maxsus ta'lim markazlari, san'at va sport maktablari, qo'shimcha ta'lim muassasalari va universitetlarning tajriba-sinov maktablari.

Nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash pedagogik ta'limning eng muhim vazifasidir. Bu borada amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, sifatli mentorlik tizimini yaratish, universitet va maktab hamkorligini mustahkamlash, refleksiv yondashuvni joriy etish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik ta'lim kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi. O'qituvchi professional kompetensiyasi predmet, psixologik-pedagogik, metodik, kommunikativ, texnologik, refleksiv, tashkiliy va shaxsiy-kompetensiya kabi komponentlardan iborat bo'lib, pedagogik amaliyot bu kompetensiyalarni real sharoitda shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarali pedagogik amaliyotni tashkil etish bir necha asosiy bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich o'ziga xos vazifalarga ega.

- **Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi:** Bu bosqich universitet va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan tayyorgarlik jarayonini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim muassasasi amaliyot dasturini ishlab chiqadi, maqsad, vazifalar, mazmun, shakl va metodlarni belgilaydi, amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzadi, mentor o'qituvchilarni tanlaydi, ular bilan hamkorlik o'rnatadi, mas'ul metodistlarni tayinlaydi. Zarur hujjatlar – amaliyot dasturi, kundaliklar, hisobot shakllari – tayyorlanadi va talabalarni amaliyotga yo'llash buyrug'i chiqariladi. Talabalar esa tayyorgarlik seminarlarida qatnashadilar, amaliyotning maqsad va vazifalarini tushunadilar, hujjatlar bilan tanishadilar, dars ishlanmalari va o'quv materiallarini tayyorlaydilar, psixologik jihatdan o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlanadilar.
- **Ikkinchi bosqich – adaptatsiya (moslashuv) bosqichi:** Bu bosqichda talabalar amaliyot joyi bilan tanishadilar: maktab rahbariyati, o'qituvchilar jamoasi, o'quvchilar, sinf tarkibi, o'quv xonalari, kutubxona, sport zali va boshqa infratuzilma bilan yaqindan tanishadilar. Mentor o'qituvchi bilan aloqalar o'rnatiladi, uning darslari kuzatiladi. Talabalar yangi muhitga moslashadilar, o'qituvchi rolini his eta boshlaydilar va dastlabki pedagogik tajribani orttiradilar.
- **Uchinchi bosqich – faol amaliy faoliyat bosqichi:** Bu bosqich amaliyotning asosiy, eng uzoq qismi bo'lib, talabalar to'liq pedagogik faoliyatni amalga oshiradilar. Ular dars kuzatuv va tahlilini o'tkazadilar, dars ishlanmalari tayyorlaydilar, mustaqil darslar o'tadilar, tarbiyaviy tadbirlar tashkil etadilar, sinf rahbarligi, ota-onalar bilan muloqot, maktab tadbirlarida ishtirok etish, pedagogik kengash va metodik birlashmalarda qatnashish orqali amaliy tajriba to'playdilar.
- **To'rtinchi bosqich – yakuniy bosqich:** Amaliyot yakunida talabalar o'z faoliyatlarini umumlashtiradilar, hisobotlar tayyorlaydilar, ochiq dars yoki yakuniy tadbir o'tkazadilar. Mentor va maktab rahbariyatidan xususiyatnoma olishadi, barcha hujjatlarni to'ldirib universitetga topshiradilar. Universitetda yakuniy konferensiya yoki seminarda amaliyot natijalari muhokama qilinadi, talabalar o'z tajriba va yutuqlari bilan o'rtoqlashadilar, o'qituvchilar esa tahlil va tavsiyalar beradilar.



- **Beshinchi bosqich – baholash bosqichi:** Amaliyot samaradorligi bir qator mezonlar asosida baholanadi: darslar sifati, tarbiyaviy ishlar samaradorligi, hujjatlarning to'liqligi, kundalik va hisobotlarning sifat darajasi, professional kompetensiyalarning rivojlanishi, mehnat intizomi, mentor va rahbariyat bahosi, o'z-o'zini tahlil va refleksiya. Yakuniy baho ko'pincha differensial bo'lib, turli jihatlar alohida baholanadi va yakuniy umumiy natija chiqariladi.

Finlandiya tajribasi – Finlandiya o'qituvchilarni tayyorlash tizimi dunyoda eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Bu yerda pedagogik amaliyot magistratura bosqichida amalga oshiriladi va ta'lim jarayonining uzviy qismiga aylanadi. Talabalar butun o'qish davomida muntazam maktablarda ishlaydilar. Oxirgi yilda ular deyarli butun vaqtni maktabda o'tkazadilar va to'liq o'qituvchi ro'lida faoliyat yuritadilar. Universitetlar o'zining laboratoriya maktablariga ega bo'lib, u yerda yuqori sifatli mentorlik va nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan. Finlandiyada o'qituvchi kasbi jamiyatda eng nufuzli kasblardan biri bo'lib, faqat eng iste'dodli nomzodlar tanlab olinadi.

Yaponiya tajribasi – Yaponiyada yangi o'qituvchilar birinchi ish yilida kuchli qo'llab-quvvatlash tizimiga ega. Bu jarayon "lesson study" – darsni o'rganish modeli asosida amalga oshiriladi. O'qituvchilar jamoaviy tarzda darsni rejalashtiradilar, bir o'qituvchi dars o'tadi, qolganlar kuzatadilar va so'ngra birgalikda tahlil qiladilar. Bu jarayon muntazam takrorlanadi va o'qituvchilarning doimiy professional o'sishini ta'minlaydi. Yaponiyada yangi o'qituvchi hech qachon yolg'iz qoldirilmaydi, u doimo mentorlar va hamkasblar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Singapur tajribasi – Singapurda pedagogik amaliyotdan so'ng ham doimiy professional rivojlanish tizimi mavjud. Har bir o'qituvchi yiliga ma'lum soat professional rivojlanish mashg'ulotlarini o'tashi shart. Mentorlik, coaching va uzluksiz o'qitish tizimlari orqali o'qituvchilar malakasini doimiy ravishda oshirib boradilar.

AQSh tajribasi – AQShda pedagogik amaliyot "student teaching" deb ataladi va odatda bir semestr yoki bir yil davom etadi. Talaba to'liq maktabda faoliyat yuritadi va tajribali o'qituvchi nazorati ostida dars o'tadi. Ayrim shtatlarda "residency" modeli joriy qilingan bo'lib, bunda talaba bir yil davomida to'liq maktabda ishlaydi, lekin universitet talabaligi saqlanib qoladi.

Germaniya tajribasi – Germaniyada ikki bosqichli model qo'llaniladi. Birinchi bosqich universitetdagi nazariy ta'limni o'z ichiga olsa, ikkinchi bosqich – "Referendariat" – ikki yillik amaliy tayyorgarlik davridir. Bu bosqichda yosh o'qituvchi maktabda faoliyat yuritadi, lekin hali yakuniy malaka imtihonlarini topshiradi. Shundan so'nggina u to'laqonli malakali o'qituvchi maqomini oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik amaliyot bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimining eng muhim, ajralmas va o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan tarkibiy qismidir. U nazariya va amaliyot o'rtasidagi ko'prik, talabani o'rganuvchidan o'qituvchiga o'tkazuvchi bosqich, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantiradigan jarayon, professional kompetensiyalar shakllanadigan va sinovdan o'tadigan maydon, pedagogik mahorat hamda shaxsiy-kasbiy sifatlar rivojlanadigan muhit hisoblanadi. Pedagogik amaliyot nafaqat universitet dasturini to'ldiruvchi qo'shimcha element, balki butun o'qituvchi tayyorlash tizimining maqsadi va natijasi, barcha nazariy fanlarning amaliy tatbiqi, sinovdan o'tish va takomillashuv maydonidir.

Samarali pedagogik amaliyot bir qator muhim omillarga tayanadi. Bular – aniq belgilangan maqsad va vazifalar, puxta ishlab chiqilgan dastur, universitet va maktablar o'rtasidagi mustahkam hamkorlik, sifatli mentorlik tizimi, yetarli vaqt va hajm, refleksiv yondashuv, zamonaviy baholash mexanizmlari, talabalar faol ishtiroki hamda yuqori motivatsiyadir.

Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, eng muvaffaqiyatli o'qituvchi tayyorlash tizimlari – Finlandiya, Yaponiya, Singapur misolida – pedagogik amaliyotga katta e'tibor beradi. Bu davlatlarda nazariya va amaliyot chambarchas bog'langan, doimiy mentorlik tizimi yo'lga qo'yilgan, refleksiya va hamkorlik madaniyati chuqur shakllangan.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham pedagogik amaliyotni takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Buning uchun universitet va maktablar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, mentor o'qituvchilarni tayyorlash va rag'batlantirish, amaliyot dasturlarini zamon talablari asosida yangilash, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash, baholash va monitoring tizimlarini modernizatsiya qilish, talabalar refleksiya va professional rivojlanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur.

Faqat yuqori sifatli, puxta tashkil etilgan va tizimli qo'llab-quvvatlanadigan pedagogik amaliyot orqali haqiqatan ham malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, o'z kasbini sevuvchi, doimiy o'sishga intiluvchi o'qituvchilarni tayyorlash mumkin. Pedagogik amaliyot sifati bevosita ta'lim sifati, yosh avlod tarbiyasi va intellektual rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shu bois, u nafaqat ta'lim tizimining ichki masalasi, balki millat kelajagi va davlat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq strategik ahamiyatga ega jarayondir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Davlat ta'lim standartlari: Pedagogika yo'nalishlari. – Toshkent, 2021.
3. Muslimov N.A. O'qituvchilarni tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Kurbonov Sh.E. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
5. Abdullina O.A. Obshchepedagogicheskaya podgotovka uchitelya v sisteme vysshego pedagogicheskogo obrazovaniya. – Moskva: Prosveshchenie, 1990.
6. Slastyonin V.A., Isaev I.F. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2013.
7. Darling-Hammond L. Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. – San Francisco: Jossey-Bass, 2006.
8. Korthagen F., Loughran J., Russell T. Developing Fundamental Principles for Teacher Education Programs. // Teaching and Teacher Education, 2006.
9. Rasulov H., Sharipova G. Pedagogik amaliyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.